



XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH HUDUDLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARIDAN BIRIDIR

Nizomov Murod

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0001-5981-5322

nizomovmurod30@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirish hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu soha nafaqat iqtisodiyot sohalari balki, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport, aloqa, moliya, sanoat, qishloq xo'jaligi va turizm kabi sohalarni rivojlantirish orqali ham hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga sezilarli darajada hissa qo'shish isbotlagan. Hamda ushbu sohani hududlar kesimida rivojlantirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, infratuzilma, milliy iqtisodiyot, sanoat, soha, aholi, xizmat, aholining turmush darajasi, samaradorlik, sifat, tarmoq.

РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ КАК ОДНО ИЗ ОСНОВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕГИОНОВ

Низомов Мурод

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье рассматривается развитие сферы услуг как одного из основных направлений повышения экономической эффективности регионов. Доказано, что данная сфера вносит значительный вклад в повышение экономической эффективности регионов не только за счёт развития отдельных отраслей экономики, но и за счёт развития таких секторов, как здравоохранение, образование, транспорт, связь, финансы, промышленность, сельское хозяйство и туризм. Также раскрываются пути развития данной сферы в разрезе регионов.

Ключевые слова: сфера услуг, инфраструктура, национальная экономика, промышленность, сектор, население, услуга, уровень жизни населения, эффективность, качество, отрасль.

DEVELOPMENT OF THE SERVICES SECTOR AS ONE OF THE MAIN DIRECTIONS FOR INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF REGIONS

Nizomov Murod

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The article examines the development of the service sector as one of the main areas of increasing the economic efficiency of regions. It is proven that this sector makes a significant contribution to increasing the economic efficiency of regions not only through the development of individual sectors of the economy, but also through the development of such sectors as health care, education, transport, communications, finance, industry, agriculture and tourism. It also reveals the ways of developing this sector in the context of regions.

Keywords: service sector, infrastructure, national economy, industry, sphere, population, service, standard of living of the population, efficiency, quality, sector.

Kirish

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu soha infrastrukturasi rivojlanishi tashkiliy jihatdan optimal va xizmatlar bozori konyunkturasiga nisbatan egiluvchan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasi va infratuzilmasida mehnat faoliyatini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda respublikamizda "xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rne va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish" (Фармон, 2017) dolzarb masala hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni infratuzilma tarkibiy qismlarining murakkabligi va xilma-xilligi, ularning bajarilish tadbirlarini mustaqil tanlash, hisoblash, loyihalashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlari mehnatning mazmuniga muhim o'zgarishlar kiritadi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon amaliyotida uzoq yillar davomida xizmatlarga oid ko'p sonli chuqur nazariy tadqiqotlar o'tkazilgan va ularning natijasida turli ilmiy qarashlar va fikr-mulohazalar shakllangan.

Xizmat ko'rsatish sohasiga xorijiy davlatlar olimlari tomonidan turlicha ta'riflar berilgan: xorijiy davlatlar olimlaridan Kottler (1993) xizmatlar sohasini ta'riflab, "bir taraf ikkinchi tarafga taklif qilish mumkin va asosan, ularni his qilib bo'lmaydi hamda biror-bir narsaga egalik qilishga olib kelmaydi. Xizmatlarni ko'rsatish moddiy ko'rinishdagi tovar bilan bog'liq bo'lishi mumkin yoki aksincha, bog'liq bo'lmasligi ham ehtimoldan holi emas degan fikrni olg'a suradi".

Philip Kotler (AQSh) – Marketing mutaxassisi fikriga ko'ra "**Xizmat** - bu mijozlarga taklif etiladigan, lekin mulk sifatida egalik qilinmaydigan har qanday faoliyat yoki foyda" (Kotler, 2003).

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan Pardayev va boshqalarning (2009) fikricha xizmatlar sohasining tabiati bo'lib, klassik turdagi erkin bozor, egiluvchanlik kon'yunkturalik, bo'g'inlashtirilgan va mahalliy joylarga bog'langan kabi xususiyatlarga ega bozor o'ziga xos xususiyatlar bo'yicha farqlanadi.

Iqtisodchi olim Pardayev, Mirzayev (2014) xizmatlar sohasining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo'yicha rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbolari, o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, statistik ma'lumotlar asosida ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Sog'liqni saqlash, ta'lim, transport, aloqa, moliya, sanoat, qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali hududlarning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Asosiy maqsad – xizmatlar sohasining samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasini ko'tarish, yangi ish o'rinlarini yaratish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdir.

Xizmatlar sohasi yuksalishi uchun iqtisodiy, infratuzilma, moliyaviy va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash talab etiladi. Qashqadaryo viloyati misolida bu jarayonni quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin:

Xizmatlar sohasining hozirgi holati

- **Turizm:** Qashqadaryo viloyati tarixiy va tabiiy boyliklari bilan mashhur. Shahrisabz va Qarshi shaharlari kabi diqqatga sazovor joylar mavjud.

- **Transport va logistika:** Viloyatda ichki va tashqi transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali xizmatlar sohasini kengaytirish imkoniyatlari bor.

- **Savdo va maishiy xizmatlar:** Hududda yangi savdo markazlari va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini tashkil etish talabi yuqori.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Turizmni rivojlantirish:

✓ Mahalliy va xalqaro turistlarni jalb qilish uchun infratuzilma (mehmonxonalar, transport tizimi, yo'l ko'rsatkichlari)ni yaxshilash.

✓ Hududning tarixiy va madaniy boyliklarini targ'ib qilish.

✓ Ekoturizm va agroturizmni rivojlantirish.

Raqamli xizmatlar:

✓ Internet xizmatlarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish.

✓ Onlayn savdo platformalari va elektron xizmatlarni yo'lga qo'yish.

Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash:

✓ Xizmat ko'rsatish sohasida startaplar va tadbirkorlarni moliyalashtirish.

✓ Yangi ish o'rinlari yaratish uchun soliq imtiyozlari va kredit dasturlarini taklif etish.

1. Infratuzilmani rivojlantirish

✓ Zamonaviy bozorlar, savdo markazlari va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini tashkil etish.

✓ Qishloq joylarda transport va aloqa tizimlarini modernizatsiya qilish.

2. Ta'lim va kadrlar tayyorlash

✓ Hududda xizmat ko'rsatish sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish.

✓ Turizm, mehmonxona biznesi, IT va boshqa xizmat sohalarida o'quv markazlari tashkil etish.

3. Investitsiyalarni jalb qilish

✓ Xizmatlar sohasiga mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun qulay biznes muhitini yaratish.

✓ Turizm va savdo sohasida investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

4. Marketing va targ'ibot ishlari

✓ Viloyatning xizmatlar sohasidagi imkoniyatlarini targ'ib qilish uchun maxsus dasturlarni amalga oshirish.

✓ Ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy media vositalari orqali hududning imkoniyatlarini yoritish.

Samarqand viloyati xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Yuqoridagi yo'nalishlarni amalga oshirish orqali viloyat iqtisodiyoti diversifikatsiya qilinib, aholi turmush darajasini oshirishga erishiladi.

Aholining xizmatlar bilan ta'minlanganligini ifodalaydigan ko'rsatkich boshqa yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarni amalda qo'llash orqali olinadigan xulosalarga qaraganda muhimroq ilmiy xulosalarni keltirib chiqarishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu ko'rsatkich nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibida xizmatlarning ulushini, balki soha yoki tarmoqning samaradorligini ham ifoda etadi. Agar xizmat ko'rsatish sohasini xizmatlar bilan ta'minlanganligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar orqali tahlil etsak, sohaning samaradorligini va bandlikni oshirish imkoniyati ham aniqlanadi. Bu borada samaradorlik mezonini mulkdor nuqtai nazaridan qarash emas, balki iste'molchi nuqtai nazaridan qarash maqsadga muvofiq va

muhimroq natijalar olish imkonini beradi. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchi manfaatlari ustun qo'yiladi. Uning istak-xohishlari, talablari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bir so'z bilan aytganda, u bozorda har qanday tovar yoki xizmatlarga, ularning sifatiga o'zining talablarini va shartlarini qo'yuvchi qirol hisoblanadi.

Xizmatlar bilan ta'minlanganlikni ifodalaydigan ko'rsatkichni shakllantirish milliy iqtisodiyotda soha va uning tarmoqlari bo'yicha ham bir vaqtning o'zida xulosa chiqarish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun ushbu sohani mukammal o'rganish lozim. Xizmatlar bilan ta'minlanganlikni ifodalaydigan ko'rsatkichga quyidagicha ta'rif beriladi: Xizmatlar bilan ta'minlanganlikni ifodalaydigan ko'rsatkich - bu milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi yoki muayyan bir tarmoqdagi bir xodimga to'g'ri keladigan mamlakat aholisiga ko'rsatiladigan xizmatlardir. Xizmat bilan ta'minlanganlikni ifodalaydigan ko'rsatkichlar miqdor ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Xizmat bilan ta'minlanganlikni ifodalaydigan ko'rsatkichlar ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tomoni insonlarning ma'naviy kamol topishi bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy tomoni esa uning samaradorligini belgilaydi.

Xizmatlar bilan ta'minlanganlikni ifodalash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- doimii aholining soni;
- sohada band aholi soni;
- tarmoqda band aholi soni;
- soha va tarmoqlardagi xodimlarning ma'lumot ko'rsatkichlari.

Xizmat ko'rsatish sohasini baholashda uning imkoniyatlarini aniqlaydigan, samaradorlik va sifatini belgilaydigan hamda boshqa bog'liqliklarni o'zida aks ettiradigan quyidagi ikkinchi gurux ko'rsatkichlar tavsiya etiladi:

1.Aholining xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi. Buni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$A_{xbtd} = \frac{A_s - XKS_{ba}}{XKS_{ba}}$$

Bu yerda:

A_{xbtd} - aholining xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi;

A_s - aholi soni;

XKS_{ba} — xizmat ko'rsatish sohasida band axoli soni.

Keltirilgan formula yordamida xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan bir kishiga mamlakat aholisining necha kishisi to'g'ri kelishi aniqlanadi.

2. Aholini xizmat ko'rsatish sohasining muayyan bir tarmog'idagi xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi. Buni aniqlaydigan ko'rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$A_{xbtdt} = \frac{A_s - XKS_{mt.ba}}{XKS_{mt.ba}}$$

Bu yerda:

A_{xbtdt} - aholining xizmat ko'rsatish sohasining muayyan tarmoqlari bilan ta'minlanganlik darajasi;

A_s - aholi soni;

XKS_{mtba} — xizmat ko'rsatish sohasining muayyan bir tarmog'idagi band xodimlar soni.

Keltirilgan formula yordamida esa xizmat ko'rsatish sohasining muayyan bir tarmog'ida band bo'lgan bir kishiga mamlakat aholisining necha kishisi to'g'ri kelishi aniqlanadi.

3.Aholini sifatli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlaydigan ko'rsatkichni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$A_{sxbtd} = \frac{A_s - XKS_{mxxs}}{XKS_{mxxs}}$$

Bu yerda:

$A_{sx\text{btd}}$ - aholining sifatli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi;

A_s - aholi soni;

XKS_{mxs} - xizmat ko'rsatish sohasidagi malakali (oliy ma'lumoti) xodimlar soni.

Keltirilgan formula orqali xizmat ko'rsatish sohasidagi oliy ma'lumotli bir xodimga mamlakat aholisining necha kishisi to'g'ri kelishi aniqlanadi. U orqali xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlaridagi ma'lumot ko'rsatkichlarini ham hisoblash mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasini yangi uslubiy yondashuv orqali baholash natijasida quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Masalan, xizmat bilan ta'minlanganlikni ifodalaydigan ko'rsatkichlarda sohadagi bir xodimga to'g'ri keladigan aholi soni ko'p bo'lsa, ushbu sohani rivojlantirish lozim bo'ladi. Agar tarmoqdagi bir xodimga to'g'ri keladigan aholi soni kam bo'lsa, tarmoqning samaradorligi ham oshadi, sifati ham yaxshilanadi. Tarmoqdagi bir xodimga to'g'ri keladigan aholi soni ko'p bo'sa, xizmat ko'rsatish ham qiyinlashib boradi, natijada sifati ham pasayadi.

Aholini xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, uning turmush darajasini ham aniqlash mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sohadagi bir xodimga aholi soni qanchalik ko'p bo'lsa, bu aholining turmush darajasi shunchalik pastligidan dalolat beradi. Aksincha, tarmoqdagi bir xodimga to'g'ri keladigan aholi soni qanchalik kam bo'lsa, u aholining turmush darajasi oshganligini ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sohasida band aholi ulushi ortib borsa, tarmoqdagi bir xodimga to'g'ri keladigan aholi soni ham qisqarib boradi. Ta'minlanganlik darajasi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimida xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini kompleks tahlil qilish va baholash uchun imkon yaratadi. Uning yordamida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun quyidagilar aniqlanadi:

- milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining holatini;
- aholining turmush darajasini hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini;
- xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini ochish imkoniyatini;
- xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini baholashda xizmatlar bilan ta'minlanganlikni ifodalaydigan ko'rsatkichlar o'ta muxim hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uning yuksalishini ta'minlaydigan asosiy yo'nalishlardan biri – xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisoblanadi. Shu sababli xizmat ko'rsatish sohasining mavqeini ko'tarish, YaIMdagi ulushini oshirish va uni mustahkamlash uchun unga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash lozim.

1. Innovasiyalar;

2. Iqtisodiy omillarning majmuasi, ya'ni: tovarlar to'g'risida iste'molchilarning tasavvurlarini o'zgarishi (moddiy tovarlar va xizmatlar o'rtasidagi farqlarning yo'qolishi); mexnatning ijtimoiy taqsimotining o'sishi, axolida bo'sh vaqt xajmlarining ko'payishi; bo'sh vaqti faoliyatini tanlash erkinligining kengayishi; sanoat ishlab chiqarishi diversifikasiyalanishining kuchayishi; bozor segmentalashishining chuqurlashishi; raqobatning yangi shakllarining rivojlanishi; turli iste'mol xizmatlariga talabning o'sishi; moddiy tovarlarning servis xizmatlari tizimlarining rivojlanishi;

3. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarining mos kelishi;

4. Ijtimoiy-demografik omillar (aholining pul daromadlari, aholi soni);

5. Siyosiy-xuquqiy omillar, shu jumladan, iqtisodiyotga va xizmatlar sohasiga davlat tomonidan tartibga solishni ta'sirining erkinlashtirish

6. Bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi – bank tizimini, sug'urtalash tizimini, taqsimlash tizimini (fond birjasi, tovar birjalari, maxsulot, xom-ashyo va materiallar bilan ulgurji savdosi), xuquqiy, konsalting, reklama va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatadigan bozor vositachilari tizimi. Ushbu omillar biznesga kirib borish to'siqlari va tadbirkorlik tavakkalik darajasini kamaytiradi.

7. Ijtimoiy-madaniy omillar: mamlakatlararo madaniy farqlar, milliy madaniy xususiyatlar va an'analar.

8. Tabiiy muhit: resurlarning cheklanganligi va yetishmasligi ana'naviy xizmatlarning ko'payishi xamda resurslardan unumli foydalanish, inson salomatligini saqlash va tashqi muxitni yaxshilash bilan bog'liq yangi xizmatlar turlarini paydo bo'lishiga olib keladi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli Farmoni.

Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J. (2014) Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti . O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisodiyot-moliya", 256-263-betlar.

Philip Kotler (2003) "Marketing Management".

Po'latov M.E., Mirzaev K.J., Sharipov T.S., Boboqulov S.B., Sharifov Sh.S. (2023) Iqtisodiy o'sish /Darslik/ Samarqand.: SamISI, "STAP-SEL" MChJ. Nashriyot-matbaa bo'limi, - 456 b.

Комлер Ф. (1993) Основы маркетинга. – Москва: Прогресс.

Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Ғаппаров А.Қ. (2009) Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», - 66 б.- 4,1 б.т.

Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Ғаппаров А.Қ. (2009) Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», - 66 б.- 4,1 б.т.

Пўлатов М.Э. (2012) Интеллектуал капитал ҳисоби ва таҳлили: назария ва амалиёт масалалари. Монография. –Т.: Иқтисодиёт, – 166 б.

Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. (2018) Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти).Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, – 296 б.

Фармон (2017) "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сонли фармони, 1-илова, 3.2-банд.